KARIES KENG TARQALGAN VA XAVFLI OQIBATLARGA OLIB KELUVCHI KASALLIK .

Toshkent davlat tibbiyot universiteti stomatologiya

fakulteti talabasi Mamirova Sarvinoz Murod qizi .

Annotatsiya

Mazkur maqola orqali tishning qanday tuzilganligini , uning kimyoviy tarkibini ya'ni qanday moddalardan tarkib topganligini , tishning qismlarini , kariesning qanday kasallik ekanligini va uning oldini olish choralari haqida bilib olishingiz mumkin . Shuningdek , tishning va kariesning rivojlanish bosqichlari haqida ma'lumotlar keltirilgan .

Stomatologiyaning kundan kunga rivojlanib borishi amaliyotda yangi zamonaviy tashxis qo'yish va standart davolash usullarini qo'llash va stomatologik kasallikning oldini olishda o'z asosini topadi .

Tish haqida umumiy ma'lumot . Tish embrional rivojlantirishning 6-7-haftalarida rivojlana boshlaydi . Postembrional davrning 5-6-oyligida sut tishlar rivojlana boradi va bola 6-7 yoshga kirganda sut tishlar doimiy tishlar bilan almashina boshlaydi . Sut tishlar soni 20 tani tashkil qiladi . Bulardan 8 tasi kurak , 4 ta qoziq va 8 ta katta oziq tishlardir . 12 yoshgacha sut tishlar doimiy tishlar bilan almashinib bo'ladi . Doimiy tishlar soni 32 tani tashkil etadi . Shularning 8 tasi kurak , 4 tasi qoziq , 8 ta kichik oziq , 12 ta katta oziq tishlar . Tishlar og'iz bo'shlig'ida quyidagi sxemadagidek joylashadi :

3 2 1 2 | 2 1 2 3
3 2 1 2 | 2 1 2 3

Tish to'qimasining tuzilishi . Tish sirtdan emal bilan qoplangan . Emal tarkibi jihatdan 95 % anoganik moddalardan tashkil topgan bo'lib , organizmning eng qattiq to'qimasi hisoblanadi . Emaldagi organik moddalarning asosiy qismini oqsil va qisman lipidlar , polisaxaridlar tashkil etadi .Tish strukturasida emal ostida dentin qatlam bo'ladi . Dentin qatlamning 70-72 % anorganik moddalardan tashkil topgan . Dentin tarkibi jihatidan suyakka yaqin turadi . Dentin kanallar va yo'llardan iborat . Har bir kanalining diametri 1-5 mkm ga teng . Sement 68 % anoganik va 32 % organik moddalardan tashkil topgan . Sement tish ildizini qoplab turadi . Sement gistologik tuzilishiga ko'ra 2 guruhga bo'linadi . Bular : birlamchi - hujayrasiz va ikkilamchi - hujayrali . Pulpa - tishning ichki bo'shlig'i hisoblanib ikki - toj va ildiz qismlarda iborat .

Tishlarning anatomik tuzilishi .

Har bir tish quyidagilarda iborat : tish toji (corona dentis)

tish bo'yni (collum dentis)

tish ildizi (radio dentis)



Tishning toj qismida tomi , devori , do'nglikalri va tubi farqlanadi . Tish tojining vestibulyar , oral , lateral , medial va chaynov - kesuv yuzalari mavjud .

Tishning bo'yin qismi tish toji hamda ildizini ajratib turadi .

Tish ildizi - jag'ning alveolasida joylashgan qismi .

Tishlar tuzilishi haqida umumiy ma'lumotlar . Odamda eng uzun tish bu - yuqori jag'ning qoziq tishi bo'lib o'rtacha uzunligi 27 mm ga teng . Eng kichik tish esa pastries jag'ning markaziy kurak tishlari . Uning o'rtacha uzunligi 21 mm ni tashkil etadi . Yuqori jag'ning premolar tishlari pastki jag'ning premolar tishlariga nisbatan yirik bo'lib hisoblanadi . 3- molar tishlarni endodontik davolash murakkab hosoblanadi .

Tish kariesi - tish qattiq to'qimalarining deminerilizatsiyasi natijasida kelib chiqadigan kasallik . Bu patologik jarayon bo'lib , tishlar milkni yorib chiqqanda so'ng kuzatiladi . JSST ma'lumotlariga ko'ra tishlarning karies bilan zararlanshi 3 omilga bog'liq . Bular :

1) kasallikning tarqalishi

2) tishlarning karies bilan zararlanish intensivligi ,

3) kasallikning o'sish intensivligi .

Karies klinik kechish xarakteriga ko'ra va boshqa xususiyatlariga ko'ra bir necha xil tasniflarga bo'linadi.

1 - tishlarning anatomik tasnifi

Emal karies

Dentin karies

tasniflarga bo'linadi.

2 - tishning topografik tasnifi

Dog' ko'rinishidagi karies

Yuza karies

O'rta karies

Chuqur karies

3 - Blek bo'yicha tasnif

1 - molar va premolar tishlarning fissuralarida

2 - molar va premolar tishlarning kontakt yuzasida

3 - kurak va qoziq tishlarning kontakt yuzasida , burchak butunligi saqlangan holda

4 - kurak va qoziq tishlarning kontakt yuzasida burchak butunlig buzilgan

5 - barcha tishlarning bo'yin qismida

6 - chaynov tishlarning do'mboqchalari hamda kesuvchi tishlarning kesuv qirrasida bo'ladi .

Kariesning rivojlanishi umumiy va mahalliy omillarga bog'liq . Umumiy omillarga noto'g'ri ovqatlanish tartibi kirsa , mahalliy omillarga og'iz bo'shlig'idagi mikroorganizmlar va tish karashlari kiradi .

Kariesning oldini olish uchun tishlarni kundalk tozalash amallariga rioya qilish zarur. Tishlarni tozalashda nafaqat tish cho'tkalaridan balki , irrigatorlar va iplardan ham foydaalnish maqsadga muvofiq hisoblanadi . Tishlarni sog'lom saqlash uchun har 6 oyda tish shifokori ko'rigiga borish tavsiya etiladi . Chunki shu orqaligina

tishlardagi karies erta aniqlanadi va davo choralari qo'llaniladi .

Xulosa

Har kim tishlariga bee'tibor bo'lmasligi lozim , sababi tishlar hayotimizdagi muhim funksiyalarni amalga oshiradi . Xususan , nutq va ovqat ham qilish sistemasi faoliyati eng asosiylari sanaladi . Yaxshi chaynalmagan luqmaning hazm bo'lishi qiyinlashadi , oqibatda turli xil oshqozon - ichak kasalliklari kelib chiqishi mumkin . Shu sababli tishlarini asrab - avaylashi darkor .

Foydalanilgan adabiyotlar

J . Rizayev , A . Kubayev " Karies kasalligi " kitobi ,

U . Shukurova " Preklinik restavratsion stomatologiya " darlik kitobi .

Tursunaliev Z.Z. Kariyesni davolash va oldini olish usullari // Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences. — 2024. — Vol. 4, №1. — B. 252–256.